

NASIROVA Malika

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
mudiri filologiya fanlari nomzodi, dotsent
m.nasirova@iiu.uz*

ASQAROVA Saida

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
I-bosqich talabasi
asqarova@mail.ru*

“AL-MUFASSAL FI SAN'ATI-L-E'ROB” ASARINING MANBALARI

ИСТОЧНИКИ ТРУДА «АЛЬ-МУФАССАЛ ФИ САН'АТИ-Л-Э'РАБ»

SOURCES OF THE WORK “AL-MUFASSAL FI SAN'ATI-L-E'ROB”

Annotasiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamakhshariy o'zining arab tili grammatikasiga oid “al-Mufasssal fi san'ati-l-e'rob” asarini yozishda foydalangan manbalar tahlili keltirilgan. Olim grammatikaga oid har bir qoidani kuchli dalillar bilan asoslagan. Ma'lumki, arab tilida eng to'g'ri matn – bu Qur'oni karim oyatlari. Shu bilan birga Zamakhshariy bu asarida Qur'on qiroatlari, qiroatlar o'rtasidagi jumla tarkibi hamda ma'noga ta'sirini yoritib bergan.

Kalit so'zlar: nahv, dalil, oyat, qiroat, e'rob.

Аннотация: В данной статье представлен анализ источников, использованных Махмудом Замахшари при написании своего труда по арабской грамматике «Аль-Муфасссал фи санъати-л-и'раб». Каждое правило грамматики ученый подкреплял вескими аргументами. Известно, что самым правильным текстом на арабском языке являются аяты Священного Корана. В то же время в этой работе Замахшари объяснил структуру чтения Корана, структуру предложений между чтениями и влияние их на смысл.

Ключевые слова: грамматика, аргумент, аят, декламация, флексия.

Annotation: This article presents an analysis of the sources used by Mahmud Zamakhshari in writing his work on Arabic grammar, “al-Mufasssal fi san'at al-e'rab”. The scholar supported every rule of grammar with strong arguments. It is known that the most correct

text in Arabic is the verses of the Holy Qur'an. At the same time, Zamakhshari explained how the differences between Qur'an recitations affect the structure of sentences and meaning of ayats.

Keywords: grammar, argument, ayat, recitation, inflection.

KIRISH

Dunyo tillari orasida Grammatik qoidalari mukammal ishlangan tillardan biri arab tili bo'lib, bu ilmda asosiy e'tibor olimning har bir qoida yoki bildirgan fikriga keltirgan dalillariga qaratiladi. Dalillar qanchalik kuchli va ishonchlilikiga qarab olimning fikrlari qabul qilinadi yoki rad etiladi. Ayniqsa Basra maktabi nahvshunos olimlari dalillarga ko'p e'tibor qaratishar, har bir masalaga bir qancha dalillarni yoddan bilishar edi, bu haqda Abu Said al-Asma'iy shunday deydi: “Abu Umar ibn A'lodan mingta masala haqida so'radim, u kishi menga mingta dalil keltirdi” [5:136]. Abu Umar ibn A'lo (689-770), al-Asma'iy (740-828) hamda Abu Zayd al-Ansoriy (743-830) basralik nahvshunos olimlar bo'lib, ko'p dalillarni bilishlari bilan mashhur edilar. Basra nahv maktabining asoschisi Sibavayhi ham dalil-hujjatlarga ko'p e'tibor qaratar, hattoki ularni jamlab “Shavahidu Sibavayhi” [13:196] deb nomlangan kitob yozgan.

Imom Johiz nahv olimlari keltiradigan dalillar haqida shunday deydi: “Kerakli o'rinda, kerakli vaqtda, munosib dalilni keltiraoladigan olimning hokimlar oldida darajasi yuqori, hurmati balanddir [10:223].

Zamakhshariy ham “Mufasssal”da o'zining har bir fikrini asosli dalillar bilan quvvatlagan. Asardagi dalillarni quyidagicha tasnifladik:

- 1) Qur'oni karim oyatlari va qiroatlari;
- 2) hadislar;
- 3) she'riy parchalar;
- 4) nahv olimlarining so'zlari;
- 5) arab maqollari;
- 6) arab lahjalari;

ASOSIY QISM

Nahv ilmida har qanday qoidaga eng kuchli dalil bu Qur'oni karim oyatlari hisoblanadi. Qur'oni karim oyatlari hamda qiroatlarni dalil sifatida keltirish an'anasi arab tilshunosligiga oid nahv, sarf, e'rob va balog'at kabi ilmlar haqida asarlar yozila boshlanganidan beri davom etib

kelmoqda. Tortishuvli masalalarda nahv olimi eng to'g'ri Kitobdan o'z fikrini tasdiqlaydigan oyatni qidirgan. Zamaxshariy ushbu asarini yozishidan maqsad – o'quvchi Qur'oni karim ma'nolarini to'g'ri tushinishi va talqin etishi bo'lgan ekan, olim har bir qoidani, o'zining har bir fikrini Qur'on oyatlari bilan tasdiqlagan.

Asarning izofa (qaratqich aniqlovchili so'z birikmasi) haqidagi bobda shunday yozgan:

وتضاف أسماء الزمان إلى الفعل قال الله تعالى: «هذا يوم ينفع الصادقين صدقهم»

Payt holi fe'lga (jumlaga) izofa qilinadi. Alloh Taolo shunday dedi:

“Bu kun, rostgo'ylarga rostgo'yliklari manfaat beradigan kun” [12:96]

Bu o'rinda “يَوْمٌ” – bugun so'zi payt holi o'zidan keyingi “يَنْفَعُ” – foyda keltiradi fe'liy jumla bilan izofa birikmasini hosil qilmoqda.

M.Zamaxshariy Qur'on oyatlari bilan chegaralanmasdan, balki o'z asarida Muqaddas Kitobning turli qiroatlarini ham zikr qilgan. Qiroatlarning farqi oyatlarning ma'nosiga, jumalarning tuzilishiga ta'siri, shu bilan birga qaysi qiroatlar to'g'ri va qay biri kuchsiz yoki g'arib ekanligini han alohida aytgan. Qur'oni karimning bir qancha qiroatlari mavjud bo'lib, ulardan Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan muttasil sanad orqali rivoyat qilinganlarini dalil sifatida keltirish to'g'ri hisoblanadi [11:15]. Quyida Zamaxshariy “Mufassal” asarida keltirgan qiroatlarga misollarni ko'rib chiqamiz.

Asardagi foil, yani fe'liy gapning egasi haqidagi bobda Zamaxshariy shunday yozadi:

إضمار عامل الفاعل: وقد يجيء الفاعل ورافعه مضمراً. يقال من فعل؟ فتقول زيد، بإضمار فعل ومنه قوله تعالى: «يسبح له فيها بالغدو والأصائل رجال» فيمن قرأها مفتوحة الباء أي يسبحه رجال

Gapda fe'l kesimning tushib qolishi: ba'zan gapning foili (ega) yoki fe'l kesim tushirib qoldiriladi:

- Kim bajardi? – deb so'ralsa
- Zayd. – deb javob beriladi va fe'l kesim

“bajardi” tushirib qoldiriladi. [12:19]

“يُسَبِّحُ لَهُ فِيهَا بِالْغُدُوِّ وَالْأَصَالِ ۖ رَجُلًا”

Ularda Unga ertayu kech tasbih ayturlar. Bir kishilarki ... [3:181]

Ushbu oyat ham “يُسَبِّحُ” ko'rinishida “ب” harfini fathali qilib o'qilgan qiroatlarda yuqoridagi qoidaga misol bo'la oladi. Oyatning ma'nosi esa, “Kishilar Unga tasbih ayturlar” – “يُسَبِّحُهُ رَجُلًا” bo'ladi

Abdulloh ibn Omir va Imom Osim Abu Bakr roziyallohu anhumalardan rivoyat qilgan qiroatlarida hamda imom Hasan bu oyatdagi “ب” harfini fathali qilib o'qiganlar. Aksar qorilar, shu jumladan Imom Nofe', Ibn Umar, Abu Amr va Hamza roziyallohu anhumlar “ب” harfini kasrali qilib o'qiganlar [9:4667].

Zamaxshariyning ishora qilishicha, bu oyatda “يُسَبِّحُ” fe'lini aniq holatda kasra bilan o'qilsa, bu fe'ling egasi “رجال” so'zi bo'ladi va jumla shu so'zdan keyin tugaydi. Agar fe'l majhul holatda o'qilsa, jumla “الأصائل” so'zida to'xtaydi, “رجال” so'zidan yangi jumla boshlanib, bu jumlada fe'l kesim zikr qilinmagan deyiladi. Bu o'rinda ikki qiroatning farqi qaysi so'zda vaqf (to'xtash) qilinishiga ta'sir etadi.

اذا م so'roq olmoshi hamda م olmoshi haqidagi bobda Zamaxshariy shunday yozadi:

ولم يثبت سيبويه ذا بمعنى الذي إلا في قولهم ماذا وقد أثبتته الكوفيون ... وذكر سيبويه في ماذا صنعت وجهين أحدهما بالرفع أن يكون بمعنى أي شيء الذي صنعتته وجوابه حسن بالرفع ... والثاني أن يكون ماذا هو بمنزلة اسم واحد كأنه قيل أي شيء صنعت وجوابه بالنصب وقرئ قوله تعالى: «ماذا ينفقون قل العفو» بالرفع والنصب.

Sibavayhi faqatgina “ماذا” dagi “ذا” ni – “الذي” ma'nosidadir deb aytgan, Kufa maktabi olimlari ham shu fikrga qo'shilishgan. Sibavayhi “ماذا صنعت” da ikki xil holatga yo'l qo'ydi, biri raf holat bo'lib unda “الذي صنعتته” ma'nosida keladi va uning javobi ham raf holatda bo'ladi – حسن; ikkinchi holatda “ماذا” ni yaxlit bir ism hisoblasak “أي شيء صنعت” ma'nosida, unga javob nasb holatda bo'ladi. Alloh taoloning ushbu so'zi ham raf ham nasb holatda o'qilgan [12:149]:

“ماذا ينفقون قل العفو”

Va sendan nimani nafaqa qilishni so'rardilar. Sen: - “Ortiqchasini”, - deb ayt [3:212].

Abu Amr, Ibn Kasiyr, al-Yaziydiy, Hasan va Qatoda roziyallohu anhumlar yuqoridagi oyatni “العفو” deb raf holatda o'qishgan [6:70]. Ular bu o'rinda “ماذا” yaxlit ism bo'lib muftado, “العفو” esa ma'tuf deyishgan. Aksar qorilar esa “العفو” deb nasb holatda o'qishgan, sababi bu o'rinda “ماذا” yaxlit ism sifatida e'tibor qilinib nasb o'rnida kelgan, uning javobi ham nasb holatda bo'lishi kerak [15:545]. al-Farro' ham bu so'zni fatha harakati bilan o'qilishini quvvatlagan [8:120].

Ikki sukunning yonma- yon kelishi bobida Zamaxshariy shunday yozadi:

والتنوين ساكن أبداً إلا أن يلاقي ساكناً فيكسر أو يضم
كقوله تعالى: «وعذابن اركض» وقد قرىء بالضم. وقد يحذف ...
وقرىء: «قل هو الله أحد الله الصمد»

*Tanvin doim sukunli bo 'ladi, ammo tanvin yana
bir sukunga yo 'liqsa u "وعذابن اركض" oyatidagi
kabi kasra yoki zomma harakatiga o 'zgartiriladi.
Ba 'zan esa tanvin tushurib yuboriladi [12:329].*

”قل هو الله أحد ﷻ الله الصمد“

*Ayt: “U Alloh yagonadir. Alloh – somaddir
[3:562].*

Bu ikki oyatni Abu Amr, Ibn Siyriyn, Hasan
va boshqalar “للا دحأ” deb o 'qiganlar va tanvinni
tushurib yuborganlar [7:270]. Jumhur qorilarning
qiroatlariga ko 'ra esa tanvin tushurib yuborilmaydi,
balki kasra bilan harakatlantirilib “للا دحأ”
deb o 'qiladi [14:179]. Chunki “دحأ” dagi tanvin
sukunli, “للا” lafzidagi lom harfi ham sukunli, ikki
sukun bir-biriga yo 'liqqanida ulardan birinchisi
kasra bilan harakatlantiriladi. Birinchi keltirilgan
qiroatda esa ikki sukunning yo 'liqishidan qochib
tanvin tushurib yuborilgan.

XULOSA

Islom olamida Qur'oni karim oyatlari
ma'nolarini tushunish, to'g'ri ta'vil qilishda
Zamaxshariyning xissasi katta. Buning isboti
nafaqat uning mashxur tafsiri “al-Kashshof”
asarida, balki grammatikaga oid “al-Mufasssal”
asrida ham o 'z aksini topadi. Zero asar yozilishidan
asosiy maqsad, Qur'oni karimni anglash bo 'lgan,
bu haqida allomaning o 'zi asarning kirish qismida
shunday deydi: “E'rob ilmining foydasi juda
ko 'p, kimki uni egallamasdan Allohning kalomini
tafsir qilmoqni istasa, ko 'r-ko 'rona ish tutibdi.
E'rob – bayon ilmining bir pog'onasi bo 'lib, u
Qur'oni karimning nozik jihatlarini ochib beradi.
Undan to 'silgan kishi yaxshilik yo 'lida yurishdan
to 'silgandir [12:4]”.

Zamaxshariy arab tili grammatikasi qoidalarini
Qur'oni karim oyatlari va qiroatlari yordamida
o 'quvchiga o 'rgatishga harakat qilgan.

“Mufasssal” asarida zikri kelgan qiroatlar soni
90 taga yetgan. “Mufasssal” asarida ba'zi qiroatlar
arab tili grammatikasida yangi qoidalar vujudga
kelishiga sabab bo 'lganini ko 'ramiz.

Zamaxshariy o 'z asarida qiroatlarni zikr
qilganida ba'zan qorining nomini, yoki qori va
kimdan rivoyat qilinganini yozgan, aksar o 'rinlarda
faqatgina qiroatning o 'zini keltirgan. Asarda nomi
aytib o 'tilgan qorilar: Hamza, Osim ibn abu an-

Najvad, ibn Omir, ibn Kasiyr, Mujohid, Nofe'
roziyallohu anhumlar.

ADABIYOTLAR

1. “Al-Qomus” arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at /
Tuzuvchilar: Ibrohimov N., Oripov A., Ikromjonov
A., Zayriyev A. – T.: 2017. – T. 4. – B. 591.
2. Носирова М. Махмуд Замахшарийнинг “Ал-
Унмузаж фи-н-нахв” рисоласи. – Т.: ТДШИ,
2005.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
Tafsiri Hilol. – T., 2008.
4. Робакидзе Н. И. Фонетическая концепция
аз-Замахшари. Дисс. ...канд. филол. наук. –
Тбилиси.: 1984. – С. 121.
5. ابن خلكان. وفیات الأعيان. – مصر: ١٨٨١. ج. ١. – ص. ٤٩٤.
6. ابن هشام الأنصاري. مغني اللبيب عن كتب الأعاريب. – بيروت،
١٩٨٥. ج. ١. – ص. ٨٨٩.
7. – ١٩٨٠.
ص. ٧٨٧.
8. أبو بكر الفراء. معاني القرآن. – القاهرة، ١٩٥٥. ج. ١. – ص. ٥٣٧.
9. أبو عبد الله الأنصاري. تفسير القرطبي. – مصر، ١٩٨٧. ج. ٧. – ص. ٤٤٠٨.
10. الجاحظ البيان والتبيين. – القاهرة، ١٣١٥ هـ. ج. ١. – ص. ٤٤٤.
11. جلال الدين السيوطي. الاقتراح في أصول النحو – دمشق، ٦٠٠٨. – ص. ١٧٦.
12. الزمخشري. المفصل. – القاهرة ١٩٠٥. – ص. ٤٠٨.
13. الشيخ محمد طنطاوي. نشأة النحو و أشهر النحاة. – لبنان، ١٩٧٣. – ص. ٣٢٦.
14. فخر الدين الرازي. التفسير الكبير مفاتيح الغيب. – بيروت، ٢٠٢٠. – ج. ٣٥. – ص. ٨٢٧١.
15. محمد الانبري. إيضاح الوقف و الإبتداء في كتاب الله عز
و جل. – دمشق، ١٩٧١. ج. ١. – ص.